



2019 YIL YANVAR-MART OYLARIDA ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQUARISHI

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-mart

RAQAMLAR:


- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **7153,9 mlrd.so'mni** ;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **5611,3 mlrd. so'mni** ;
- Iste'mol tovarlarning ja'mi sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **78,4 %** ni
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **17,2 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-mart oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan **7153,9** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan .

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **98,0** foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham xissa qo'shdi. Ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **1,2** foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **37,2** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,5 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **7010,0** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **98,0 %** ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **87,3** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,2 %** ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **19,4** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ni) tashkil etdi.



**Yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat
korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarilishi**

Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari		Hajmi, soni	2019 yil Yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2018 yil yavar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan)		dona	47167	30718
Paxtadan yigirilgan ip		tonna	5439.1	5677
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar		tonna	527.7	368.9
Tabiiy gaz		mln. kub. metr	13.2	11.5
O'simlik yog'i (tozalangan)		tonna	4412.7	4104.6
Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim, po'lat arqonlar, to'kilgan shnurlarva shu kabi buyumlar		tonna	98.6	135.1
Aroq – (spirt 100%)		ming litr	2647.7	4228

GM Uzbekistan nafaqat viloyatimiz balki Respublikamiz sanoatida muhim o`rin egallaydi. Ayni paytda yurtimiz yo`llari va ko`plab davlatlar avtomagistrallarida kechayu kunduz harakatlanayotgan «O`zbekistonda ishlab chiqarilgan» belgisi ostidagi yuz minglab mashinalar iqtisodiyotimizning samaradorligi va yuksak salohiyatini namoyish etmoqda.

Viloyatda GM Uzbekistan tomonidan 2019 yil yanvar-mart oylarida 47167 dona avtomobil ishlab chiqarildi. Shuni alohida ta`kidlab o`tish joizki, korhona tomonidan yanvar oyidan boshlab yangi Tracker rusumli avtomobil ishlab chiqarish boshlandi.

2019 Yanvar-mart oylarida GM UZBEKISTAN tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobillar soni (dona)




Ishlab chiqarilgan avtomobillar nomi	2019 yil yanvar-mart oylarida	2018 yil yanvar-mart oylarida
MATIZ	0	2211
SPARK	4760	4652
NEXIA T 250	15683	11401
COBALT	12836	5627
GENTRA	10442	5099
MALIBU	2286	501
CAPTIVA	6	1227
TRACKER	1154	0
JAMI	47167	30718

Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 65,5 % ulushini), Andijon shaharlari 14,6 %, Honobod shaharlari 3,1 %, Shahrixon 2,5 %, Andijon 2,4 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida jami sanoat ishlab chiqarish hajmi



Shu bilan birga eng kam ulush Bo'z (0,4 %), Ulug'nor (0,5 %), Paxtaobod (0,5 %) va Buloqboshi (0,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2019 yilning yanvar-mart oylarida jami 7153,9 mlrd so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 4689,1 mlrd so'mni, Andijon shahrida 1045,4 mlrd so'mni, Honobod shahrida 220,4 mlrd so'mni, shahrihon tumanida esa 177,8 mlrd so'mni tashkil etdi.


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora — tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **5611,3** mlrd.so'mni tashkil etdi va ja'mi sanoatdagi ulushi esa **78,4 %** ga yetdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari


ishlab chiqarish hajmi 5611,3 mlrd.so'm

2-diagramma




Yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

3-diagramma



2019 yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

4-diagramma




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 17,2 % tashkil etmoqda.

2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %

7-diagramma




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Paxtaobod tumanida (99,8 %), Baliqchi tumanida (97,9 %) va Shahrixon tumanida (82,2 %) tashkil etdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Asaka tumanida 14662,5 ming so'm, Honabod shahrida 5273,1 ming so'm, Andijon shahrida 2405,4 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan 2328,7 ming so'm yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

6-diagramma



Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatqichlari

Tarmoqlararo sanoat kuuperatsiysini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subektlari tomonidan 2019 yilning yanvar-mart oylarida 1345.8 mlrd. somlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o'sishi buyicha chora– tadbirlarning amalga oshirilishi, korhonalarning ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

<i>Mahalliyashtirish</i>	2019 yil yanvar-mart oylarida	2018 yil yanvar-mart oylarida
<i>Loyihalar soni, birlik</i>	62	61
<i>Korhonalalar soni, birlik</i>	34	38
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd.so 'm</i>	1345.8	883.6
Export qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>ming AQSH dollari</i>	11.6	9.4
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	29	0